Emro Science and Education
International open-access scientific journal
Journal homepage: https://journal.emro.uz

OPEN ACCESS

CONFERENCE PAPER OPEN ACCESS

Vol. 1 No. 1 (2023) · “Axborot oqimlari va intellektual tizimlarning ijtimoiy, iqtisodiy va texnik-texnol... DOI: 10.5281/zenodo.24319362

Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallar to‘plami *Andijan 2023 yil 10-noyabr*

GOOGLE INTERNET QIDIRUV TIZIMIDAN AFZALROQ BO‘LGAN QIDIRUV TIZIMLARI

Risqaliyev Jaxongir Dadajon-o‘g‘li, Ichki ishlar vazirligi Malaka oshirish instituti

Annotatsiya: Ushbu maqolada Google internet qidiruv tizimidan ba’zi jihatlari bo‘yicha yaxshiroq deb hisoblangan muqobil qidiruv tizimlari muhokama qilinadi. Google va boshqa qidiruv tizimlarini taqqoslanib, ularning maxfiylik va xavfsizlik masalalari hamda afzalliklari ko‘riladi. O‘quvchilarda Googlega muqobil qiqdiruv tizimlari haqida tushuncha hosil qilish va onlayn qidiruv ehtiyojlariga mos keladigan qidiruv tizimlaridan foydalanish ko‘rsatib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: internet qidiruv tizimi, google, duckduckgo, nigma, haystack

Google internet qidiruv tizimi butun dunyo bo‘yicha eng mashhur qidiruv tizimi hisoblanadi [1], ammo undan qolishmaydigan qidiruv tizimlari sifatida odatda Yandex va Bing ko‘riladi. Ammo, u qadar mashhur bo‘lmagan ba’zi qidiruv tizimlari Google qidiruv tizimiga nisbatan ayrim ustunliklarga egadir. Bu ustunlik qandaydir mavzu yoxud funksiyada ko‘zga tashlanishi mumkin, lekin mana shunday kichik yutuqlar ham ba’zida foydalanuvchiga naf keltiradi [2].

Google qidiruv tizimidan ba’zi funksiyalari jihatdan afzalroq qidiruv tizimlari quyidagilardir:

- DuckDuckGo
- Nigma
- Haystack
- FindSounds


DuckDuckGo (https://duckduckgo.com/).

DuckDuckGo - ochiq kodga ega, birmuncha tanilib ulgurgan qidiruv tizimidir (1-rasm). Uning serverlari AQShda joylashgan bo‘lib, u o‘z serveridan tashqari, Yahoo!, Bing, Wikipedia kabi boshqa manbalarning natijalaridan ham foydalanadi.

Published: 10.11.2023

Cite this article: Risqaliyev Jaxongir Dadajon-o‘g‘li (2023). Google internet qidiruv tizimidan afzalroq bo‘lgan qidiruv tizimlari. Emro Science and Education, 1(1). https://doi.org/10.5281/zenodo.24319362

© 2023 The Author(s). Published by Emro Science and Education. This is an open access article.



1-rasm. DuckDuckGo qidiruv tizimi interfeysi

DuckDuckGo foydalanuvchiga maksimal maxfiylikni ta’minlab bera oladi [3]. Tizim foydalanuvchi haqida hech qanday ma’lumot to‘plamaydi, qidiruv tarixini saqlamaydi, “kuki” (cookie) fayllaridan foydalanishni maksimal darajada cheklaydi. Yirik qidiruv tizimlari esa natijalarni shaxsiylashtirishga urinadi, ya’ni foydalanuvchi haqida axborot to‘plab, shu asosda kerakli natijalarni ko‘rsatishga harakat qiladi. Buning yomon tomoni - shaxsiy ma’lumotlar tizimda saqlab qolinadi. DuckDuckGo internet qidiruv tizizimida ham Googlenikiga o‘xshash qidiruvni yaxshilash uchun asosiy operatorlari mavjud.

Asosiy operatorlar:


T/r	Operator	Tavsifi
1	**and**	mantiqiy “va” bog‘lovchisi
2	**-**	so‘zlarni hisobga olmaslik
3	**+**	aniq so‘zni qo‘shish
4	**site**	ko‘rsatilgan saytdan ma’lumotlarni izlash
5	**filetype**	muayyan fayl turini topish
6	**inurl**	URLdan ma’lumot izlash
7	**intitle**	sahifa sarlavhasidan ma’lumot izlash

Ijtimoiy tarmoqlarda monitoring olib borilganda, DuckDuckGo qidiruv tizimi samaralidir.

Nigma (https://www.nigma.net.ru/).

Nigma - Rossiyaning intellektual metaqidiruv tizimi bo‘lib, Moskva davlat universiteti bitiruvchilari Viktor Lavrenko va Vladimir Chernishovlar tomonidan ishlab chiqilgan (2-rasm). Nigma nomi (Dictynidae oilasiga mansub o‘rgimchaklar avlodidan biri) World Wide Web bilan assotsiatsiyadan tanlangan. U qidiruvni Google, Yahoo!, Bing, Yandex, Rambler, AltaVista, Aport indekslari bo‘yicha amalga oshiradi, shuningdek, o‘z qidiruv algoritmiga ega.

Uning ustunlik tomoni - eng yirik tizimlar indekslari bo‘yicha qidiruvi, kerakli natijalarni chiqarilishiga olib keladi. Bundan tashqari, Nigma natijalarni mavzuviy guruhlarga bo‘lib, foydalanuvchiga qidiruv maydonini toraytirishni taklif qiladi.




2-rasm. Nigma internet qidiruv tizimi interfeysi

Bunda natijalarning bir qismi ustuvor deb olinadi, bir qismi esa ikkilamchi sifatida chetga suriladi. Nigmaning kamchiligi o‘z indeks bazasiga ega emasligidir.

Haystack (http://haystak5njsmn2hqkewecpaxetahtwhsbsa64jom2k22z5afxhnpxfid.onion/).

Ushbu tizim Tor anonim tarmog‘ida qidiruvni amalga oshiradi (3-rasm).



3-rasm. Haystack tor anonim tarmog‘i qidiruv tizimi interfeysi

Undan foydalanish uchun mazkur tarmoqqa kirish yoki maxsus Tor brauzeridan foydalanish talab etiladi. Uning ustunlik jihati - Google, Yandex yoki boshqa yirik tizimlar kira olmaydigan tarmoqda qidiruvni amalga oshiradi. Tor tarmog‘ida 1,5 milliarddan ortiq indekslangan saytlarda qidiruvni amalga oshiradi [4]. Haystak ham maxfiylikni birinchi o‘ringa qo‘yadi, foydalanuvchilarni kuzatmaydi va himoya qiladi.

FindSounds (https://www.findsounds.com/).

Bu tizim ochiq manbalardan ovoz qidirishga mo‘ljallangan qidiruv tizimidir [5]. U faqat ovozli fayllardan iborat natijalarni ko‘rsatadi. Bu - tabiatdagi tovushlar, mashina ovozi, odamlarning ovozi va boshqalar bo‘lishi mumkin. Sozlamalarda formatni va sifatni belgilab olsa bo‘ladi. Barcha topilgan ovozli fayllarni ko‘chirib olish mumkin. Shuningdek, ovozlarni audionamuna asosida qidirish funksiyasi mavjud.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. https://www.similarweb.com/top-websites/
2. https://daryo.uz/2016/03/29/googledan-afzalroq-bolgan-6-ta-qidiruv-tizimi
3. https://blog.hubspot.com/marketing/top-search-engines
4. https://www.expressvpn.com/blog/best-dark-web-search-engines/
5. https://www.forumdaily.com/uz/vosem-poiskovikov-kotorye-luchshe-chem-google/